

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafokatovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoirra Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406



<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

10.00.00 – Филология фанлари

**Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna**  
filologiya fanlari doktori “Kompyuter lingvistikasi va raqamli  
texnologiyalar” kafedrası dotsenti, ToshDO‘TAU  
E-mail: [shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz](mailto:shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz)  
ORCID: 0000-0002-5429-4708

**Matyakubova Noila Shakirjonovna**  
ToshDO‘TAU doktoranti.  
E-mail: [matyakubovanoila@navoiy-uni.uz](mailto:matyakubovanoila@navoiy-uni.uz)  
ORCID: 0009-0009-3154-723X

## MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI

**Annotatsiya.** Globallashuv va axborot almashinuvi davrida turli tillardagi parallel matnlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj yanada oshdi. Parallel matnlar turli sohalarda, jumladan tarjima, tabiiy tilni qayta ishlash va lingvistik tadqiqotlarda muhim rol o‘ynaydi. Tillar o‘rtasida to‘g‘ri moslashishni ta‘minlash uchun o‘zbek va ingliz kabi tillardagi parallel matnlarni sintaktik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz ushbu ikki turlicha sintaktik qurilmaga ega bo‘lgan tillarning moslashuv jarayonidagi sintaktik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** Tegishli jarayon, sintaktik tahlil, sodda gap, so‘z tartibi, gap tuzilishi, kesim, ega, to‘ldiruvchi..

**Khamroyeva Shahlo**  
Doctor of philology, Associate Professor,  
Department of Computer Linguistics  
and Digital Technologies, TSUULL

**Matyakubova Noila**  
doctoral candidate of TSUULL.

## SYNTACTIC ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH SIMPLE SENTENCES IN THE ALIGNMENT PROCESS

**Abstract.** In the age of globalization and information exchange, the study of parallel texts in different languages has gained prominence. Parallel texts play a vital role in various fields, including translation, natural language processing, and linguistic research. To ensure accurate alignment between languages, syntactic analysis of parallel texts in languages such as Uzbek and English is of paramount importance. In this article, we consider the syntactic analysis of these two languages with different syntactic structures in the alignment process.

**Key words:** Alignment process, syntactic analysis, word order, sentence structure, predicate, subject, object.

**Хамроева Шахло Мирджоновна**  
Доктор филологических наук,  
доцент кафедры компьютерной лингвистики и  
цифровых технологий ТашГУУЯЛ.

**Матякубова Ноила Шакирджоновна**  
докторант ТашГУУЯЛ.

## **СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ ВЫРАВНИВАНИЯ**

**Аннотация.** В эпоху глобализации и обмена информацией изучение параллельных текстов на разных языках приобрело большое значение. Параллельные тексты играют важную роль в различных областях, включая перевод, обработку естественного языка и лингвистические исследования. Для обеспечения точного соответствия между языками первостепенное значение имеет синтаксический анализ параллельных текстов на таких языках, как узбекский и английский. В данной статье мы рассматриваем синтаксический анализ этих двух языков с разными синтаксическими структурами в процессе выравнивания.

**Ключевые слова:** Процесс выравнивания, синтаксический анализ, порядок слов, структура предложения, сказуемое, подлежащее, дополнение.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N03>

**Kirish.** Parallel matnlar (Parallel matn korpuslari) mashina tarjimasi tizimlari va tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlarini o'rgatish va takomillashtirish uchun juda muhim. Ushbu matnlar mashinalarga tillarning bir-biriga qanday mos kelishi, tarjimoni to'g'ri, sifatli qilishni o'rganish va tushunish imkonini beradigan katta ma'lumotlar to'plamini taqdim etadi. Tarjimon vositalarning to'liq, samarali ishlashini ta'minlash uchun, albatta, bir nechta bosqichlar amalga oshirilishi, asliyat tili va tarjima tilining konstruktiv shakli va kontekstual holati mosligini aniqlashda ahamiyatli. Bunday hollarda Aligner kabi dasturiy vositalarning ahamiyati katta bo'lib, ularning samaradorligini ta'minlash uchun ham bir necha bosqichlar amalga oshiriladi. Ulardan biri sintaktik tahlil (yoki parcing jarayoni) [1] so'zlararo munosabatlarni tushunish uchun gap yoki matnni grammatik tarkibiy qismlarga ajratishni o'z ichiga oladi. Bu tahlil juda muhim, chunki u tilni boshqaradigan asosiy grammatik qoidalar va qoliplarni ochib beradi.

Gap – bu to'liq g'oya yoki fikrni o'z ichiga olgan; so'z turkumlari funksional jihatdan tartibga solingan eng katta sintaktik birlikka ega bo'lgan grammatik birlikdir. Gaplarni tuzish jumla tuzilishini tushunishni talab qiladi. Gap tuzilishini tilshunoslikda sintaksis o'rganadi. Sintaksis – bu tildagi jumalarning tuzilishi yoki shakliga oid qoidalarni o'rganadigan fan. Har qanday parallel matnlardagi asliyat va tarjima tilidagi matnlar qaysi tilda bo'lmasin o'ziga xos sintaktik qurilmaga ega bo'ladi. Bunday sintaktik qurilmalarning mashina tomonidan yaxshi “tushunilishi” moslashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Moslashtirish jarayoni (Alignment process) – bu parallel matnlarda o'zaro mos keladigan elementlarni topish jarayoni, to'g'ri tarjima qilish, tillararo tahlil qilish (cross-linguistic analysis) va boshqa turli xil ilovalarning samaradorligini oshirish imkonini beradi [2]. Garchi leksik moslashuv (so'z yoki iboralarni moslashtirish) uchun unchalik muhim bo'lmasada, sintaktik tahlil matnlarni moslashish jarayonini sezilarli darajada yaxshilash va tez ishlash imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sintaktik birliklar va sintaktik so'z tartibi tilshunoslik sohaning eng asosiy obyektlaridan biri bo'lib, bu sohada ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, tabiiy tilga qayta ishlov berishga ehtiyoj oshgan sari, kompyuter lingvistikasining ko'plab tadqiqotchilari sintaktik analizatorlar yaratishga katta qiziqish bildirmoqda. Jumladan, Yamada, Kevin Knight, Chiang [3], Quirk, Galley, J. Graehl, D. Marcu, S. De Neefe, W.Wang va

I.Thayer[4] kabi tadqiqotchilar statistik mashina tarjimonlarini yaratishda, uning samaradorligini oshirish uchun parallel matnlarning sintaktik tahliliga alohida etibor qaratishadi.


Bundan tashqari, bir qancha onlayn sintaktik analizator(parser)lar ham yaratilgan bo'lib, unga 2002-yilda D.Klein, Ch.Manning tomonidan yaratilgan Stanford Parser, 2010-yilda bepul ochiq kodli dasturiy ta'minot sifatida taqdim etilgan CoreNLP, 2018-yilda Kitaev, Klein tomonidan yaratilgan Berkeley Neural Parserni misol qilish mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham kompyuter lingvistikasi doirasida sintaktik analizator yaratish asosiy masalalardan biri bo'lib A.Po'latov, M. Xakimov, B.Elov, Sh.Xamroyeva, N.Abdurahmonova va D.O'rinboyeva kabi bir qancha tadqiqotchilar ko'plab lingvistik dasturlarni yaratishda sintaktik tahlilning ahamiyatiga urg'u berishgan.

### Natijalar va muhokama.

#### Struktur muvofiqlik

Sintaktik tahlil – bu gap yoki uning qismlarining mantiqiy ma'nosini tushunishga qaratilgan tahlil. U har bir tilning struktur jihatlarini ochib beradi; parallel matnlarni moslashtirishda tillar o'rtasidagi tizimli muvofiqlikni saqlash va tushunish uchun muhim. Lemmatizatsiya faqat xususiyatlarni ajratib olish va ma'lumotlarni saralashga qaratilgan [5] bo'lsa, sintaktik tahlil so'z va gaplarning grammatik tuzilishi o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi. Sintaktik tahlil har qanday tildagi parallel matnlarni moslashtirish jarayoniga talab qilinadigan bosqich bo'lib, ayniqsa, grammatik jihatdan turli struktura/qurilmaga ega bo'lgan gaplarda alohida ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillari sintaktik strukturasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, o'zbek tili **SOV** (Subjec+Object+Verb) shaklida qurilsa, ingliz tili **SVO** (Subjec+Verb+Object) tartibida bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda batafsil ko'rib chiqamiz:



#### 1- rasm. Ingliz va o'zbek tillarida gap tartibi va so'zlarni moslashtirish jarayoni.

Tahlil qilinayotgan har ikki tilda ham gapning asosiy bo'laklari ega (S) va kesim (V) hisoblanadi. Garchi bir xil gap bo'laklariga ega bo'lsa ham, ularning gapda qo'llanilishi va yasalishi bir-biridan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda kesim va to'ldiruvchining o'rni o'zgargan; gapdagi tafovut unchalik katta emas. O'zbek tilida sodda gapning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bunday gaplar ingliz tiliga tarjima qilinganda shaklda o'zgarishlar hosil bo'ladi. Ushbu maqolada turlicha grammatik tuzilishga ega bo'lgan o'zbek tilidagi sodda gapni ingliz tilidagi sodda gap bilan taqqoslab moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli holatlarning sababini aniqlaymiz.

#### Egning ishtirokiga ko'ra sodda gapning turlari

Ega gap strukturasi o'ziga xos grammatik shakllanishi va ma'no funksiyasi bilan xarakterlanadi. Egning asosiy ifoda materiali bu predmetni (keng ma'noda) anglatuvchi bosh

kelishikdagi soʻzdir. Shuningdek, u soʻzlar birikmasi orqali ham koʻrinadi. Ega oʻzining shu xususiyatlari bilan gapdagi boshqa boʻlaklardan ajralib turadi [7]. Ingliz tilidan farqli ravishda oʻzbek tilida eganing ishtirokiga koʻra gap ikki turga: **egali** va **egasiz gaplarga** boʻlinadi. Gapda ish-harakatni bajaruvchi shaxs yaqqol ajratib koʻrsatilgan boʻlsa **egali**, egasi alohida gap boʻlagi sifatida berilmagan boʻlsa, **egasiz** gaplardir. Egasiz gaplarning quyidagi turlari mavjud:

**Shaxsi (egasi) maʼlum** gapda ega kesimning shaxs-son shakllaridan maʼlum boʻlib turadi.

**Shaxsi (egasi) umumlashgan** gapda gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador boʻladi. Asosan maqol, matal, hikmatli soʻzlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan boʻladi.

**Shaxsi (egasi) nomaʼlum gap**da kesim feʼl bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi maʼnolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qoʻshimchasining yoʻqligi. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab boʻlmaydi. Atov gap va soʻz gaplar ham shaxsi nomaʼlum gaplar hisoblanadi.

Oʻzbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida gaplar gap boshiga S(ega) qoʻyish orqali hosil qilinadi. Chunki ingliz tilida gap strukturasi  $S+V$  koʻrinishida yasalihi lozim. Tahlil qilinayotgan ikkita tildagi sodda gaplarning tuzilishini misollar yordamida tahlil qilamiz va yuqorida keltirilgan oʻzbek tilidagi egali va egasiz gaplar ingliz tilida qanday yasalihini taqqoslaymiz, moslashtirish jarayonida nimalarga koʻproq etibor qaratish lozimligini koʻrib chiqamiz.

#### 1-jadval. Oʻzbek va ingliz tillarida soda gap turlari.

Gap turi	Oʻzbek tilidagi matn	Ingliz tilidagi matn
Egali gap	U qishloqdagi eng mard yigit hisoblanardi.	<b>He</b> was the bravest boy in the village.
Egasiz gap:		
Shaxsi(egasi) maʼlum	Shu yerda boʻlsalar kerak.	<b>They</b> must be here.
Shaxsi(egasi) umumlashgan	Soʻramasdan xonaga kirmang.	Don't enter the room without permission.
Shaxsi(egasi) nomaʼlum gap	Bu mavzuni oʻqish shart emas.	<b>It</b> is not necessary to study this theme.

Berilgan misollarning tahliliga qaraydigan boʻlsak, egali gap har ikkala tilda deyarli bir xil –  $S+V$  shaklida yasalgan boʻlib, bunday shaklda yasalgan gaplarda moslikni topishda muammolar boʻlmaydi. Buning sababi shuki, parallel berilgan gaplarda berilgan gapning egasiga mos keluvchi egani topish mumkin boʻladi. Ammo egasiz gap turi hisoblangan **shaxsi (egasi) maʼlum gaplarda** moslikni aniqlash uchun sintaktik tahlil bilan bir qatorda gapning kesimini morfologik tahlil qilish talab etiladi. Bunda gapdagi kesimdan shaxs-son shakllarini ifodalab kelgan qoʻshimchalar ajratilib, ularning qaysi shaxsni ifodalab kelishi aniqlanadi. Yuqorida keltirilgan “*Shu yerda boʻlsalar kerak*” misoliga qaraydigan boʻlsak, gapda kesim boʻlib kelgan “*boʻlsalar kerak*” feʼliga qoʻshilgan **-lar** qoʻshimchasi 3-shaxs koʻplik maʼnosini ifodalaydi, shuning uchun tarjima jarayonida ingliz tiliga tarjima qilingan gapning egasi **they (ular)** olmoshi bilan olinadi va soʻzlarni moslashtirish jarayonida **they** olmoshiga mos soʻz sifatida feʼlga qoʻshilgan **-lar** qoʻshimchasi koʻrsatiladi. Demak, shaxsi (egasi) maʼlum gaplarda moslikni aniqlash uchun sintaktik tahlil bilan bir qatorda morfologik tahlil ham amalga

oshiriladi. *Shaxsi (egasi) umumlashgan gaplar*, asosan, muayyan bitta shaxsga yo'naltirilmagan, umumetirof etilgan jumalarda namoyon etiladi va bu holat, asosan, ingliz tilida gapning egasi sifatida **it** olmoshi, **there+be** konstruksiyasi yoki **majhul nisbat** shaklida yasalgan gaplar ko'rinishida uchraydi. Buni quyida berilgan jadvaldagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

## 2- Jadval. O'zbek va ingliz tilida shaxsi(egasi) umumlashgan gaplar

O'zbek tilidagi matn	Ingliz tilidagi matn
O'tgan ishga <b>kuyingandan</b> foyda yo'q.	<b>It</b> is water under the bridge.
Jon <b>kuydirmasang</b> jonona qayda, tog'ga <b>chiqmasang</b> do'lona qayda.	<b>There are</b> no shortcuts to success.
Kuch <b>birlikda</b> .	<b>There is</b> strength in unity.
Nima <b>eksang</b> shuni o'rasan.	What <b>is gone</b> around comes around
Bugungi ishni ertaga <b>qo'yma</b> .	Nine <b>are saved</b> by a stitch in time.

O'zbek tilidagi shaxsi(egasi) noma'lum gaplar asosan imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab kelganligi sababli gapda bajaruvchi shaxs ko'rsatilmaydi. Ingliz tilida ham gapning ma'nosiga qarab **egasiz shaklda**, **it** olmoshi, **there+be** konstruksiyasi yoki **majhul nisbat** shaklida yasalgan gaplar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Buni quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

## 3-jadval. Shaxsi(egasi) noma'lum gaplar

	O'zbek tilidagi matn	Ingliz tilidagi matn
Imkoniyat	Buni ertagach bajarishning iloji yo'q.	<b>It</b> cannot be done until tomorrow.
Zaruriyat	Endi qattiq o'qishga to'g'ri keladi.	<b>It</b> is necessary to study hard.
Shart	Maqolani to'g'ri yozish kerak.	The article <b>should be written</b> correctly.
Istak	Dunyoda tinchlik o'rnatilsin.	Let the world be peaceful.

Bundan tashqari atov gap va so'z gaplar ham ikkala tilda deyarli bir xil egasiz ko'rinishda yasalib, ularda moslikni topishda deyarli muammolar yuzaga kelmaydi. Masalan,

**Qish.** Dalalarni qalin qor qoplagan. = **Winter.** The fields are covered with thick snow.

Yoki,


**Sokin tun. Qalblarni ezuvchi jimlik.... = Quiet night. A heartbreaking silence....**

Sodda gaplarning ega bilan qo'llanilish holatlarining deyarli ko'plab shakllarida o'zbek tilida ega ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa ham, ingliz tilida gapdagi ish-harakatning bajaruvchisiga moslashgan ega berilgan bo'ladi. Parallel matnlarni moslashtirish jarayonida ega yaqqol ajratilmagan bo'lsa, kesimga qo'shib kelgan shaxs-son qo'shimchasi yoki aynan o'sha qo'shimcha qo'shilgan so'z ajratib ko'rsatilishi moslikni topishni osonlashtiradi.

## Gapda kesimning qo'llanilishiga ko'ra moslikni topish

Turli tillardagi parallel matnlarni moslashtirishda asosiy muammoli holatlardan biri bu gap kesimidagi moslikni topishdir. Chunki muayyan bir tildagi gap bo'laklarining gapda qo'llanilish o'rnini mavjud. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida ham bir necha tafovut va o'xshash jihatlar mavjud bo'lib, Aligner kabi moslikni aniqlovchi dasturiy vositalarning

samaradorligini oshirish uchun bu qoidalar to'raligicha kiritilishi lozim. Yuqorida ta'kidlangan muammoli holatlardan biri tokenizatsiya jarayonida moslashtirilayotgan gaplardagi tokenlar sonidagi farqdir. Buning necha sabablari mavjud bo'lib, ulardan biri gapning asosiy bo'lagi hisoblangan kesim va uning yasalishidir. O'zbek tilidagi kesim va uning yasalishi ko'p jihatdan ingliz tilinikidan farq qiladi. Buni 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. O'zbek va ingliz tilida kesimning tuzilishi.

O'zbek tilida kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: fe'l kesim va ot kesim. Ingliz tilida esa fe'l kesim va tarkibli kesim mavjud bo'lib, ular yasalish jihatidan bir-biridan farq qiladi. Dastlab fe'l-kesimni tahlil qilamiz. Fe'l-kesimning o'zi ham o'zbek tilida uch turga bo'linadi: sof fe'l-kesim (1), sifatdosh bilan ifodalangan (2) va ravishdosh bilan ifodalangan kesim (3). Ammo ingliz tilida fe'l-kesim sof fe'l-kesim va murakkab fe'l-kesim deb yuritiladi. Moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan tafovutli holatlardan biri aynan shu fe'l turlarida hisoblanadi. Ya'ni ingliz tilidagi murakkab fe'l, asosan, ko'makchi (auxiliary verb) yoki modal fe'l (modal verb) yordamida yasalib, o'zbek tiliga tarjima qilganda bitta so'zga yoki juft fe'lga aylanib qolishi mumkin.

4-jadval. Fe'l kesimning moslashishi.

Ingliz tilidagi matn	O'zbek tilidagi matn
Tom did not work yesterday.	Tom kecha ishlamadi.

He <b>won</b> a lot of money.	U ko'p pul <b>yutub oldi</b> .
I <b>can afford</b> to buy a new car.	Yangi moshina sotib olishga <b>imkonim yetadi</b> .
They <b>have been playing</b> tennis since 10 a.m.	Ular soat 10dan beri tennis <b>o'ynashyabdi</b> .

Berilgan misollarda fe'llarning sonidagi farqning sababi ingliz tilidagi ko'makchi fe'llarning tarjima qilinmasligida ekanligini ko'rdik. Gapdagi zamonning qo'llanishiga va gapning nisbatiga ko'ra bazi hollarda ko'makchi fe'llarning soni ko'payishi mumkin, ammo o'zbek tiliga tarjima qilgan bitta asosiy fe'l shaklida qolaveradi. Misol uchun, "**I have been told to come early**" (Menga erta kelishni aytishgandi) gapida **have been told** murakkab fe'l-kesim hisoblanib, o'zbek tiliga **aytishgandi** sodda fe'l-kesimiga to'g'ri keladi. Ushbu holatda uchta token bitta tokenga to'g'ri kelmoqda. Bunday moslashtirishdagi muammoli holatlar fe'lning otlashgan/tarkibli fe'l shakllarida ham mavjud bo'lib, ularni keyingi maqolalarimizda batafsil yoritamiz.

**Xulosa.** Parallel korpus bu bir tildagi matnlarning boshqa tildagi tarjimalari bilan moslashtirilgan to'plamidir. Parallel korpuslarni yaratish va ulardan foydalanish tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter lingvistikasi sohasida muhim ahamiyatga ega. Parallel korpuslarni ishlab chiqish va ishlatishda moslashtirish jarayoni hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u NLPning turli ilovalarining ajralmas qism bo'lib, mashina tarjimasi, tillararo ma'lumot olish, lingvistik tadqiqotlar va til o'rganish jarayonlarini tezlashtiradi, osonlashtiradi. Moslashtirish jarayonining aniqligi va sifati ushbu ilovalarda parallel korpusning samaradorligiga sezilarli hissa qo'shadi [6].

Moslashtirish jarayoni bir nechta bosqichlarda olib borilib, ulardan eng asosiysi sintaktik tahlil bosqichi bo'lib, u moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan ko'plab muammolarni hal qiladi. Dastlabki bosqichda umumiy va tafvutli holatlar aniqlanib, mashinaga o'rgatilishi moslashtirish jarayonidagi inson omili aralashuvini kamaytiradi va dasturiy vositani samaradorligini oshiradi.

#### Адабиётлар / Литература / References:

1. Hwa.R, Resnik .P, Weinberg. A, Cabezas C, Kolak.O. Bootstrapping Parsers via Syntactic Projection across Parallel Texts. Natural Language Engineering 1 (1): 1–15. 2004 Cambridge University Press.2- b.
2. Xamroyeva Sh.M, Matyakubova N.Sh. Tabiiy tilni qayta ishlashda alignerning o'rni. Ma'mun akademiyasi.2023.77-b
3. Yamada K, Knight K. A Syntax-based Statistical Translation Model. In Proceedings of the 39th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, Toulouse, France. Association for Computational Linguistics. 2001. 523–530 b.
4. Galley M, Graehl J, Knight K, Marcu D, DeNeefe S, Wang W, Thayer I. Scalable Inference and Training of Context-Rich Syntactic Translation Models. Kompyuter lingvistikasi bo'yicha 21-xalqaro konferensiya va Kompyuter lingvistikasi assotsiatsiyasining 44-yillik yig'ilishi materiallarida, Sidney, Australia. 2006. 961–968 bet.



5. Elov b, Hamroyeva Sh, Xusainova Z. O 'zbek tilidagi turli tuzilishli so 'zlarni lemmalash usullari. O 'zbek tili milliy va talimiy korpusining nazariy va amaliy masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.2023.14-20b.
6. Xamroyeva Sh.M, Matyakubova N.Sh. Korpus lingvistikasida "Aligner" dasturlarning o' rni. Fan va Jamiyat.2023.N3.74-79b.
7. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 2009.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).